

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 3

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 3

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: Nodir Jo‘raqo‘ziyev

Mas‘ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo‘ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo‘raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay‘ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O‘zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo‘jao‘g‘li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O‘zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O‘zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O‘zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Manzura Abjalova

O'zbek tilidagi mantlarni avtomatik morfologik tahlil qilishda
lemmatizatsiya va stemming jarayoni.....6

Ləman Həsənova

Azərbaycan dilində alınma turizm terminləri və onların Nizama
salınma prosesi.....22

Adabiyotshunoslik

Hulkar Aliqulova

O'zbek va qozoq yor-yorlarining boshqa to'y qo'shiqlari bilan
munosabati36

Aygul Chobanova

Zalimxon Yoqub she'rida qofiya, ritm va intonatsiya boyligi.....55

Atilla Süleymanlı

“Özbəkistanım” – Tarix, Mədəniyyət və
Milli Kimliyin Poeziyada Əksi.....68

Fan. Ta'lim. Metodika

Мадина Назарова

Использование искусственного интеллекта в образовании:
преимущества, недостатки и перспективы.....80

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylarning boshqaruv tizimida turklar.....100

Sema Dülğar, Şeyda Naciye Ötegen Cuma

Bir Derviş ve Bir Seyyahın Kesişim Noktası: Seyahat
(Sarı Saltuk ve İbn Batuta Özeline).....118

CONTENT

Linguistics

Manzura Abjalova

Lemmatization and stemming processes in automatic morphological analysis of Uzbek texts.....6

Laman Hasanova

The Borrowed Tourism Terms in Azerbaijan Language and their Regulation Process.....22

Literature

Hulkar Alikulova

The Relationship of Uzbek and Kazakh Yor-Yor Songs to Other Wedding Songs.....36

Aygul Chobanova

Richness of Rhyme, Rhythm and Intonation in Zalimkhan Yagub's Poem.....55

Atila Suleymanli

"My Uzbekistan": Reflection of History, Culture and National Identity in Poetry.....68

Science. Education. Methodology

Madina Nazarova

The usage of Artificial Intelligence in Education: Advantages, Disadvantages and Prospects.....80

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Turks in the Samanid's Administration.....100

Sema Dulgar, Sheyda Naciye Otegen Cuma

The Intersection of a Dervish and a Traveler: Travel (Specially on Sari Saltuk and Ibn Battuta).....118

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE

O'zbek va qozoq yor-yorlarining boshqa to'y qo'shiqlari bilan munosabati

Hulkar Aliqulova¹

Abstrakt

Turkiy xalqlarning to'y marosimlariga oid "Yor-yor" qo'shiqlarining o'ziga xos ijro o'rni, ijro usuli, ifoda maqsadi, she'riy xususiyatlari, tuzilishi, qofiyalanishi tahlil qilinganda janrning o'ziga xos va o'xshash jihatlari ko'zga tashlanadi. O'zbeklarda "yor-yor", qozoqlarda "jar-jar" naqorati bilan ijro etilgan to'y qo'shiqlaridagi badiiy ifodalarning xalqona shakli, to'y marosimi jarayonida nutqning o'rni, ijrochilarning ijro mahorati, xarakteri, tasvirlarning xususiyatlari, sehri inonch-e'tiqodlarning mavjudligi qiyosiy tipologik tahlilni talab qiladi. Xususan, qaynota, qaynona, opa-singilning xonadon hayotidagi o'rni, dunyoqarashini ifodalash asarning kompozitsion yaxlitligini ta'minlashda muhim omil sifatida qaraladi.

Maqolada o'zbek va qozoq yor-yor qo'shiqlarining nikoh to'yga oid boshqa marosim qo'shiqlari bilan uzviyligi o'rganilgan. Ayniqsa, qozoq nikoh to'y marosimi ichida kichik marosimlarning uchrashi hamda ularda ijro etiladigan qo'shiqlarning mazmun-mohiyati yoki ijro o'rni o'xshash o'zbek to'y marosim qo'shiqlari bilan qiyosiy tipologik jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *turkiy folklor, janr, qiyosiy tahlil, o'lan, yor-yor, marosim, qofiya, an'ana, ijrochilik san'ati.*

Kirish

O'zbek va qozoq yor-yorlarida mantiqiy izchillik marosim qo'shig'ining janr tabiatini, poetik xususiyatlarini, ijro jarayonidagi estetik ahamiyatini belgilab berishga xizmat qiladi. Ikki xalqning

¹ Aliqulova Hulkar Qahramonovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: hulkaraliqulova79@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8863-3624

Iqtibos uchun: Aliqulova, H. Q. 2024. "O'zbek va qozoq yor-yorlarining boshqa to'y qo'shiqlari bilan munosabati". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 35 – 54.

nikoh to'yi marosim qo'shiqlarini semantik jihatdan qiyoslash, ularning o'xshash hamda mushtarak jihatlarini aniqlash, bu tipdagi qo'shiqlarning nafaqat poetik xossalarini oydinlashtirish, balki xalqlarning madaniy hayoti, estetik qarashlari va badiiy tafakkuri tadrijiy takomilini o'rganish imkonini beradi.

O'zbek va qozoq yor-yorlarining nikoh to'yida ijro etiladigan "O'lan", "Kelin salom", "Sinsu" (сынсу), "Au-jar" (ау-жар), "Jupatuv" (жупатуу) kabi qo'shiqlar bilan munosabati ijro o'rni, ijro vaqti, ijrochilar va ularning o'ziga xos ijro usulida ko'zga tashlanadi.

Yozma manbalarda yoki xalq orasida "yor-yor" va "o'lan" so'zlarining sinonim shaklida qo'llanilishi, bugungi kunda folklorshunoslikda alohida janr sifatida tadqiq etilishi, har ikki qo'shiqning janriy xususiyatlarini, umumiy va o'ziga xos jihatlarini tahlil etishga undaydi.

Shu o'rinda, o'zbek olimlarining o'lan va yor-yor janri haqida bergan fikrlariga e'tiborni qaratish joiz ko'rinadi. Folklorshunos olimi M.Alaviya *o'lan, lapar, yor-yor* qo'shiqlarining ildizi bir ekanligini, keyinchalik ular ijro jarayonlariga qarab ajralib qolganini ta'kidlaydi. B.Sarimsoqov esa *lapar va o'lan* janrlarining genetik jihatdan aloqadorligi u qadar shubha uyg'otmasa-da, ammo yor-yor va o'lan janrlari tarixan bir hodisa deb qarash ishonarli emas, – deb fikr bildiradi [Sarimsoqov 1988, 95]. O'zbek xalq laparlarini o'rgangan N.Qosimov "Yor-yor, o'lan, lapar tarixan mustaqil janr sifatida yuzaga kelgan..." desa [Qosimov 1998, 129], N.Shomamatov "O'lan janri haqida ba'zi mulohazalar" nomli maqolasida, xalq og'zaki ijodining rivojlanib, o'zgarib borishi, janrlararo munosabatlarda ularning ba'zan diffuziyaga uchrashi mumkinligi ta'kidlanib, M.Alaviyaning fikri asosli ekanligi, bugungi kunda yor-yor, o'lan, laparlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari janrlarni bir-biriga bog'lab turuvchi vosita, deb ta'riflaydi [Шомамаатов 1988, 195].

K.Isayev "O'zbek xalq marosim qo'shiqlaridan "o'lan"ning etnik va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari" maqolasida o'lan va yor-yor qo'shiqlari oxirida "yor-yor" so'zining radif bo'lib kelishi, ikki janrning o'tmishda bir bo'lganligini bildirmaydi, chunki ular ijro usuliga ko'ra keskin farqlanadi, deydi [Isayev 2022, 509–513]. Maqola egasi bu fikrni to'ydan oldin, qiz va yigit tomondan ijro etilgan o'lanlarning aytishuvlik xususiyati bilan bog'lagan. Ammo, bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida kelinni ota uyidan olib ketilayotganda, bo'lajak kelinning boshi uzra joynamoz tutib aytilgan faol yor-yorlarda ham aytishuv shakli mavjuddir.

Kelin tomon:

*Kelin emas oy ekan, yor-yor, yor-ey,
Malohatga boy ekan, yor-yor, yor-ey.*

*Bekka loyiq shu singlim, yor-yor, yor-ey,
Biram xushchiroy ekan, yor-yor, yor-ey.*

Bo'lajak kelinning ta'rifi bilan bir qatorda, bek yigitga loyiq ekanligi (Kuyov shundaymi?) ta'kidlanmoqda.

Kuyov tomon:

*Hoy qizlarjon shoshmangiz, yor-yor, yor-ey,
Haddingizdan oshmangiz, yor-yor, yor-ey,
Bek bo'lmasa shu yigit, yor-yor, yor-ey,
Bo'larmidi pochchangiz, yor-yor, yor-ey.*

Shu o'rinda aytish kerakki, ba'zi hududlarda bo'lajak kelinni to'y kuni (kuyovlar kelinni olib ketish uchun kelgan vaqtda) qo'shni uydan ota uyiga olib kelinayotganda, har ikki tomondan (kelin va kuyov) vakillar, yangalar bo'lgan, ular yor-yor ijro etishgan va ijrolarda shunday aytishuvga xos to'rtliklar bo'lgan.

"Eng sara yor-yorlar" kitobida ham yuqoridagi misralarning quyidagicha varianti mavjud:

*O'ktam ekan pochchamiz, yor-yor, yorone,
Yo'liga gul sochamiz, yor-yor, yorone.
Ko'rmanasi zo'r bo'lsa, yor-yor, yorone,
Kelin yuzin ochamiz, yor-yor, yorone.
Jon qizlarjon, shoshmangiz, yor-yor, yorone,
Haddingizdan oshmangiz, yor-yor, yorone,
Mard bo'lmasa shu yigit, yor-yor, yorone,
Bo'larmidi pochchangiz, yor-yor, yorone.*

Yor-yor va o'lanlarning janr xususiyatlari yuzasidan turli xil yondashuvlar va xulosalar mavjud. Nazarimizda, aytishuv shakli yoki "yor-yor" so'zining radiflanishi ikki janrning o'ziga xosligini ta'minlay olmaydi.

Qolaversa, professor B.Sarimsoqovning ta'rificha o'lanlar marosimda ko'tarinkilik baxsh etadi [Sarimsoqov 1986, 216]. "Hay-hay o'lan, hay o'lan" boshlanmali yor-yorlar ham xuddi shunday o'ynoqi shaklda, ko'tarinki ruhda ijro etiladi.

Sh.Imomnazarovanning "O'zbek folklorida o'lan janri" mavzusidagi dissertatsiyasida o'lan janri to'ydan oldin o'tkaziladigan "qiz bazmi"da, aytishuv tarzida ijro etilishi, janrning o'ziga xos xususiyatlari, to'y marosimida tutgan o'rni va ahamiyati xususida ma'lumotlar beriladi.

Dissertant ishning ikkinchi bobi, ikkinchi faslida turkiy xalqlar folklorida o'lan janri tipologiyasiga ham to'xtalib, o'zining ijro usuli, ijrochilar tarkibi, hayotiy-maishiy funksiyasi, she'r tuzilishi va mazmuniga ko'ra, qozoq folkloridagi "qara o'leñ" o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodidagi o'lan janriga o'xshaydi, deb ta'kidlaydi [Имомназарова 2017, 17]. Ishda "o'lan" va "qara o'leñ" qo'shiqlarining mushtarak jihatlari qiyosiy tahlil etiladi.

Qozoq folklorshunoslari A.Divayev, B.Kenjebayev, M.Avezov, A.Baytursinov, S.Seyfullin, M.G'abdullin, B.Uaxatovlar "to'y marosim qo'shiqlari" atamasini turli nomda qo'llaganlar: marosim qo'shiqlari, ulandama, tanqidiy marosim qo'shiqlari, unga oid asarlar; an'anaga, urf-odatlariga oid qo'shiqlar va boshqalar. B.Uaxatov "Qozoq xalq she'rlari" (1974) kitobida turkiy xalqlarning to'y qo'shiqlari, ularning to'planishi va o'rganilishi borasida ma'lumotlar mavjud. B.Uaxatovning qozoq o'lanlari haqidagi tasniflari orqali biz "o'lan" so'zining kelib chiqish tarixi bilan ham tanishamiz.

X-XIV asrlarda yozilgan "Devonu lug'otit turk", "Turk-arab so'zliklari" kitoblarida qadimiy qipchoq tilida "ula", "ulag'il" degan so'zlar bor. Buni filolog, qipchoq tilining leksikasini o'rgangan olim Ebjan Qurishjanovning "əldə neni jalg'au, birine-birin baylanıstıru, birin-birine qiyulastıru" fikri ham asoslaydi [Қуришжанов 1970, 209]. Qozoq o'lanlarining ko'hna turlari "qora o'lan" hamda "qayim" o'lanlarining ijro usuliga e'tibor qaratsa, yuqoridagi so'zlarning asar janr xususiyatlari bilan bevosita aloqadorligini his etish mumkin bo'ladi. "Qora o'lan" aytishuvida, bir ijrochi ikkinchi ijrochiga yo'l berib, o'lanni davom ettirishga chorlaydi. O'lanni bir kishi boshlasa, ikkinchi kishi uni davom ettiradi, umuman, to'rt kishi bir-birini davom ettirib, aytishuv qilishadi. Keyingi ijrochiga navbat berilayotganda, bir-ikki misrani men aytdim, keyingi yo'lni sen ayt, ya'ni *ula*, *o'lan* qilib ulashtir, degan ma'nodagi ifodani sezish mumkin.

O'lan so'zining kelib chiqishi bilan bog'liq yana bir ma'lumot mavjud. Yoqutlarning qahramonlik dostonlarini o'rgangan I.V.Puxov [Puxov 1962, 22] "olongxo" so'zi qozoqlarning "o'leñ" so'ziga yaqin ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni bu so'z turk-mo'g'ul aralash yashagan davrda paydo bo'lgan. O'lanning qo'miqcha "*ulan*" deb atalishi yoki qoraqalpoq, o'zbek, oltoy xalq ijodida ham bu so'zning mavjudligi, keyinchalik turlicha nomlar bilan atalishiga guvoh bo'lamiz. Qipchoq tilida – *ula*, qo'miqda – *ulan*, qozoqda – *o'leñ*, oltoyda – *qojon*, qoraqalpoqda – *ulan*, qo'shiq, o'zbeklarda – *qo'shiq* shaklida [Uaxatov 1974, 32 – 35].

V.V.Radlov ham qirg'iz xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plagan, nikoh to'yida ijro etiladigan qo'shiqlarni "Ўzatkan кыздың өлөңү" deb jar-jarlardan (aytishuv shaklda) namuna berib, kelin-kuyovning uyida "betochar" marosimida ham o'lan aytiladi, deb ta'kidlaydi. Yoki uyg'urlarning qiz ko'chirishda kuylanadigan *noxsholari* ham aytishuv shaklida bo'lib, "hay-hay yalan" so'zi bilan boshlanadi.

Qardosh xalqlar to'y qo'shiqlarida ijro usuli va ijro o'rne, ijrochilarning ishtiroki, kompozitsion qurilishi, badiiy-estetik qamroviga ko'ra o'langa o'xshaydigan janrlar, xususan, lapar, aytish (айтыс), aytishuv, heujar, yor-yor, o'lan va o'lang (өлаң) o'rtasida tipologik o'xshashliklar mavjud. "O'lan" atamasi ba'zi xalqlarda janr nomi sifatida qo'llanilsa, ba'zi xalqlarda xalq she'riyatining umumiy atamasi tarzida ishlatiladi. Qozoq xalq qo'shiqlarining tasniflarida bu holatni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Qozoq jar-jarlari ba'zan o'lan deb nomlanib, qizni kuyovning uyiga kuzatayotganda kuylanganligi, bunday o'lanlar sakral mohiyat kasb etishi va "qora o'lan" deb yuritilishiga doir qarashlar ham mavjud [Baybek 2007, 51-54]. A.Baybekning fikricha, nikoh magik mohiyat kasb etuvchi marosim sifatida qaraladi. Shuning uchun uning aytimlarida ham sakral mohiyat mavjud.

Tadqiqotchining fikrlariga qo'shilamiz, qadimdan odam bolalari oila qurish uchun tangri oldida bir-birlariga sadoqatli bo'lish maqsadida ont ichishgan. Nikoh marosimining tub mohiyatida ham qadimgi ajdodlarimizning ilohlar oldida bir-birlarini asrab-avaylashlari uchun qasam ichishlari turgan. Ibtidoiy odamlarning nikoh qurishdan oldingi kelishuv yoki ilohlar oldidagi onti keyinchalik oila institutining shakllanishi, takomillashuvi hamda hozirgi ko'rinishdagi nikohning maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Qozoqlarning to'ylaridagi "qora o'lan"lar matnida ham magik mohiyatga ega so'zlar, nikohlanuvchilarni yovuz kuchlardan asrash, ularning orasiga jin va shaytonlarning aralashmasligi kabi ma'nolarni tashuvchi iboralar o'z ifodasini topgan.

Qozoq nikoh to'ylari o'z ichiga bir qancha kichik marosimlarni qamrab oladi, bu marosimlarning har birida o'lan (she'r) lar aytiladi. Tahlillarga tayangan holda, bizningcha, "o'lan" so'zining o'zbeklarda **qo'shiq** deb atalishi, e'tiborga molik jihatdir. Nazarimizda, yor-yor va o'lanlarning ijro o'rne, ijrochilarning ishtirokiga, ijro usuliga ko'ra umumiy shaklda – to'y qo'shiqlari (turkmanlarda – to'y aydymlary, turklarda – düğün türkölari) deyish mumkin.

Akademik G'abit Musrepov "Өнер туыстығы" ("San'at qarindoshligi") maqolasida, Sirdaryo bo'ylarida azaldan bir-biri bilan og'a-ini bo'lib yashagan o'zbek bilan qozoqlarning tarixi, turmush tarzi haqida ma'lumot berib, so'ngra "Фолклордың түрлі-түрлі жанрларынан да ұқсастық, ортақтастық табыла береді. Ерте кезде өзбектер домбыра мен қобыз тартқаны, үйлену тойларында жар-жар өлеңін айтқаны анық", – deb ta'kidlaydi [Musrepov 1970, 423].

B.Uaxatov akademikning fikriga tayanib, qozoq yurtida ijro etiladigan jar-jar, o'zbeklarda yor-yor deyiladi, ammo bu qo'shiq O'zbekistonning barcha hududida birdek mavjud o'lan turi emas, – deya izohlaydi [Uaxatov 1974, 68]. Olim "...Qisqasi, uylanish to'yida aytiladigan yor-yor qo'shig'i turkiy-mo'g'ullarning qadimdan qolgan, biroq har bir elning o'z ichida keng tarqalgan qo'shiq turlaridan biridir. U o'zining ichki mazmun-mohiyati bilan ham, tashqi shakl tuzilishi, ijro o'rni bilan ham qiziqarli. ...Qozoq tuprog'ida tarqalgan bu "jar-jar", o'zbeklarda "yor-yor" deb ataladi. Biroq yor-yor O'zbekistonning barcha hududlariga xos o'lan emas, buni faqat Sirdaryo bo'yidagi qozoqlar bilan aralash yashagan o'zbeklargina aytadi. Masalan:

*Қора-қора қозылар
Қойды бастар, жар-жар.
Қалам қасты женгелер,
Өлең бастар, жар-жар.
Нені кисен жарасар,
Бойыңызға, жар-жар.
Өлең айтайын деп келдім,
Тойыңызға, жар-жар.
(Qora-qora qo'zilar,
Qo'yni boshlar, yor-yor.
Qalam qoshli yangalar,
O'lan boshlar, yor-yor.
Nima kiysang yarashar,
Bo'yingizga, yor-yor.
O'lan aytay deb keldim,*

To'yingizga, yor-yor) – degan o'lan so'z o'zbeklarda yo'q, qozoq bilan o'zbek aralashgan joydagina uchrashi mumkin. Shunday qilib, qozoqning o'lan degan so'zini "qo'shiq" bo'lmay, "o'lan" bo'lib kelishining o'ziyoq ko'p narsani anglatadi" [Uaxatov 1974, 68 – 69], – deb ta'kidlaydi.

B.Uaxatovning "o'lan" so'zi bilan bog'liq fikri, bizning

nazarimizda, asosli emas. Chunki “hay-hay o‘lan” bilan boshlanuvchi yoki “o‘lan” so‘zi ishtirok etgan yor-yor to‘rtliklari nafaqat Sirdaryo bo‘yida yashagan o‘zbeklarda, balki boshqa hududlarda, hattoki boshqa qardosh xalqlarning qo‘shiqlarida ham mavjud. Biz yuqorida uyg‘urlarning qiz ko‘chirishda kuylanadigan noxsholari ham aytishuv shaklida bo‘lib, “hay-hay yalan” bilan boshlanishini ta‘kidlagan edik. Qomulliklar bu qo‘shiqlarni to‘yda yoki to‘ydan oldin bo‘lak bir majlisda ijro etishadi. Bu majlis bizda “qiz bazmi” marosimiga to‘g‘ri kelishi mumkin:

*Hay-hay o‘lan, hay o‘lan, man ne qilay, yar-yar,
Hanjar alib jurakni pora qilay, yar-yar.
Hay-hay o‘lan, hay o‘lan, qor keladur, yar-yar,
Kimxob to‘ng‘o purkunup yar keladur, yar-yar.*

“O‘lan” so‘zi bilan boshlanuvchi to‘rtliklar o‘zbek, turkman va Tojikiston janubida yashovchi o‘zbek-laqaylarning yor-yorlarida ham uchraydi. Masalan: Qashqadaryo viloyatidan to‘plangan yor-yor namunalarida:

*Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
O‘lanchi qiz, yor-yor.
Va‘dasida turmagan,
Yolg‘onchi qiz, yor-yor.*

Yoki:

*Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, jonim qizim, yor-yor,
Qizimizning yuziga gul ochilur, yor-yor.
Insha Alloh to‘y ko‘rgan jannatidir, yor-yor,
Men ham o‘lan so‘zimni qildim tamom, yor-yor.*

“Yor-yorlar. O‘zbek xalq qo‘shiqlari” to‘plamiga kiritilgan olimi Zubayda Husainovanning [Тўхлиев 2009, 55] Namangan viloyati, Chust tumani, Qoraqo‘rg‘on qishlog‘ida yashovchi 54 yoshli Soatbibi Mirbabayevadan yozib olgan yor-yorlarida ham “hay-hay o‘lan” so‘zlari mavjud.

Shu to‘plamga kiritilgan Tojikiston janubida yashovchi o‘zbek-laqaylarning yor-yor qo‘shiqlaridan namunalar keltirib, yuqoridagi fikrimizni yanada dalillashimiz mumkin.

*O‘lan aytsang munda kel,
Aytishaylik, yor-yor. ...
Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
O‘lan ko‘pdir, yor-yor.
O‘lan aytgan tillaringdan,*

Menga o'ptir, yor-yor.

Yoki:

*Hay-hay o'lan, jon o'lan, oy botmasin, yor-yor,
Kelin kelgan kechalar, tong otmasin, yor-yor.*

Farg'ona xalq qo'shiqlarida "hay-hay o'lan", "o'lan" bilan boshlangan bir qancha to'rtliklarni uchratishimiz mumkin:

*Hay-hay o'lan, hay o'lan,
To'ydir bugun, yor-yor,
Do'st kelib, dushman ketar,
Kundir bugun, yor-yor.*

Yoki:

*Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Gul qayda bor, yor-yor,
Bir yaxshiga, bir yomon,
Har yerda bor, yor-yor.*

Yor-yorlarning turkiy xalqlar og'zaki ijodida tutgan o'rni va ahamiyati o'rganilganda "o'lan" so'zi bilan bog'liq juda ko'p o'ziga xos misralar mavjudligining guvohi bo'ldik.

Turkman yor-yorlari ham bundan mustasno emas.

*Şatlyk günü öleñi,
Başlagaly, ýar-ýar.
Gyz-u-ýigit köñlüni,
Hoşlagaly, ýar-ýar [Otdyýew 2010, 30].*

Ko'rinib turibdiki, qardosh xalqlarning to'y qo'shiqlari umumiy bir shaklga yoki mazmun-mohiyatga ega bo'lishi ham mumkin.

Xalq og'zaki ijodida yuqoridagi kabi janrlararo bog'lanishlar, misralarning almashib ijro etilishi, ijro usuli va ijro o'rnidagi o'zgarishlar areal tahlillar jarayonida ko'zga tashlanadi. Yor-yorlar, o'lanlar, laparlar, to'y marosimining turli qismlarida ijro etiladigan aytimlarning ijro o'rni birday nikoh to'yi bo'lganligi uchun bunday diffuzion holatlarni ko'p uchratish mumkin. O'lan va yor-yor qo'shiqlarining umumiy va o'ziga xos jihatlarini o'rgangan olimlarning ba'zilar ularni alohida janr, ba'zilar esa bir-biriga bog'liq, bir uzvdan shakllangan, deya ta'kidlashadi. Bizning fikrimizcha, o'lanlardagi aytishuv shakli, yor-yor qo'shiqlariga ko'chib o'tgan bo'lishi mumkin. Yor-yor to'rtliklarida aytishuvlar kam uchrasa-da, jar-jarlarda, aynan, kelin va kuyov, kelin va ota-ona,

kelin va yanga, kelin va qarindoshlar o'rtasidagi aytishuvlar mavjud bo'lib, aytimlarning asosiy mazmun-mohiyati shu to'rtliklarda ko'rinadi. Ya'ni, yor-yorlardagi aytishuvlarning o'lanlardagi aytishuvlardan farqi shundaki, yor-yorlarda aynan aytishish uchun harpdosh (o'lan aytuvchi tomonlar bir-biriga harpdosh bo'ladi, har ikki tomon bir-biriga harba qiluvchidir. Ular bir-birlariga "Harpdoshim!" – deb murojaat etadilar. Xitob, nido, savol, javob bilan o'lan aytadilar) [Алавия 1974, 161-184] tanlanmaydi, kelin yoki kuyov ta'rif-tavsifiga qaratilgan aytimlarning mavzu ko'lami rango-rang emas, aytimlarda musobaqalashuv, yuqori ko'tarinkilik sezilmaydi, har ikki qo'shiqning ijro o'rni to'y marosimi bo'lsa-da, biri (o'lan) to'ydan yoxud to'y boshlanishidan oldin ijro etilsa, biri (yor-yor) to'yning asosiy kulminatsion jarayonida, qizni kuzatish vaqtida kuylangan. Ijro o'rni va vaqtidagi aniqlik janrlarning eng muhim emotsional kategoriyasini belgilaydi. Qolaversa, qozoqlarning qora o'lan, qayim o'lan va jar-jar, au-jarlari esa shunday kompozitsion qurilmaga ega. Aytishuvga moslangan bu qo'shiqlarda ham asosan, mungli, hazin ifodalar, qolaversa, kelin-kuyovning o'y-kechinmasi, orzu-umidlari, dunyoqarashlari tasvirlanadi.

Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, Jumabozor mahallasi, 56-uyda yashovchi 67 yoshli Istayev Zulfiqor Rasulovichning ma'lumotiga ko'ra, 20–30 yil avvalgi to'ylarda kelin va kuyov tomonlar aytishuv tarzida jar-jar qo'shig'ini kuylashgan ekan. "Kuyovlar kelinni olib ketgani kelganda, avval, mehmon bo'lishgan, keyin kelin ota-onasi, oilasi, qarindoshlari bilan xayrlashib, sinsu (сынсу) kuylagan, qarindoshlari bilan "au-jar" aytishgan, so'ngra kuyov tomon aytishuv boshlab bergan. Jar-jarni ikki tomon yangalari juda chiroyli qilib ijro etishgan. Keyin kelinni akasi yoki tog'asi ko'tarib mashinaga chiqarib qo'ygan", – deya ta'kidlaydi Zulfiqor ota. Ularning rafiqalari 65 yoshli Ahmedova Parida ona bizga "Sinsu" (сынсу), "Betashar" (беташар), "Jubatur" (жубатуу) qo'shiqlaridan kuylab berdi. Ko'rinib turibdiki, qozoq jar-jarlari aytishuv shaklida yaqin yillargacha ijro etilgan.

Yor-yor qo'shiqlari va "Kelin salom" [Очилов 2088, 67–69], "Kuyov o'tirsin", "Kelin o'tirsin" qo'shiqlarining o'ziga xosligi ijro o'rni, mazmunida ko'rinsa, umumiyliigi asosan ijrochilarning ayollar ekanligida, kompozitsion qurilmaning o'xshashligida ko'rinadi. "Kelin salom" to'yning yakuniy qismida ijro etilsa-da, misralarda "yor-yor" so'zining takrorlanishi yor-yor qo'shiqlarining ijro ohangi, shakliiy ko'rinishiga mosdir.

Folklorshunos Oxunjon Safarov Buxoro nikoh to'ylari

misolida “Kuyov o'tirsin” va “Kelin o'tirsin” marosim qo'shiqlarini tahlil etarkan, “Kelin o'tirsin” aytimlarida yor-yor qo'shiqlarining o'xshash motivlari yoki misralari mavjudligini izohlaydi va quyidagi namunani keltiradi:

*O'tiring kelin, o'tiring,
Karnay-surnay chalingan
To'y sizniki, o'tiring.
Ostonasi tillodan
Uy sizniki, o'tiring.
Beqasam to'n kiyingan,
Yor sizniki, o'tiring,
Shohi ko'rpalar tashlangan,
To'r sizniki, o'tiring* [Сафаров 1989, 35 – 40].

Misralarning so'ngida “yor-yor” radifining o'rnida “o'tiring” so'zi kelmoqda. Kelinning yangalari tomonidan aytilgan yor-yorlarda kelinni ovutish mazmuni ustuvor bo'lsa, yuqoridagi “Kelin o'tirsin”da ijro etilgan qo'shiqda kuyov tomonning vakili kelinga atalgan narsalarni sanab xushomad qilayotganday tuyuladi. Har ikki holatda ham asosiy obraz kelin ekanligi ko'zga tashlanadi.

Qozoq olimi M.Avezov xalq qo'shiqlarining genetik xususiyatini o'rganar ekan, “Епостық дастандардың шығу тегі сөз болғанда олар тұрмыс-салт жырларының негізінде туды деп айтуға кәміл болады” [Авезов 1969, 236], – deb janrlarning qorishiq jihatlarini izohlaydi. Bunday qorishiq holatlardan biri o'lanlar va yor-yorlarning ijro jarayonidagi bir-biriga bog'liq xususiyatlaridir.

Yor-yorlarning poetik xususiyati qozoqlarda va o'zbeklarda ham birday ijro o'rniga qarab o'zgarib boradi. Masalan, har ikki xalqning to'y qo'shiqlarida aynan qizni yupatishga e'tibor berilgan bo'lsa, bu jarayonda ma'lum ma'noda ikki tomonning ishtiroki ko'zga tashlanadi. O'zbeklarda aynan aytishuv tarzda ijro aspektlari ko'zga tashlanmasa-da, ammo yangalarning ham kuyov, ham kelin nomidan qo'shiq kuylashida bu holatlar namoyon bo'ladi. Qozoqlarda esa ikki tomonning aytishuvi qizni noaniq taqdirga ko'ndirish va uning dard-alamini kuylashga qaratilgan. Keyinchalik har ikki xalqning qo'shiqlarida aytishuv shakli emas, asosan, ikki tomonning birgalikda ikki yoshga baxt, chiroyli hayot tilash, yangi oila bilan tabriklash ijrolari shakllangan.

Qozoqlarda:

Құтты болсын тойларың, замандастар, жар-жар,

*Жаңалыкқа жар болып, қадам бастар, жар-жар.
Бірге аттаған босаға берік болсын, жар-жар,
Үйлеріңе құт-бақыт келіп қонсын, жар-жар.*

О'zbeklarda:

*Qutlug' bo'lsin to'ylari, yor-yor, yorone,
Teng tushibdi bo'ylari, yor-yor, yorone.
Baxtli kelin-kuyovning yor-yor, yorone,
Bir xil orzu-o'ylari, yor-yor, yorone.*

Biroq xalqning turmush tarzi, urf-odatları doimiy ravishda o'sib boradi va o'zgarib turadi, shuning uchun qo'shiqlarning mazmuni, poetik ifodasi ham o'zgarishlarga duch keladi. Fanda bir xil qarashlar natijasida marosim qo'shiqlarini qat'iy bir guruhlarda jamlash ham u qadar o'zini oqlamaydi.

Bu borada "Qozoq adabiyoti tarixi" kitobida berilgan "Үйлену салтындағы беташар, тойбастар, жар-жар өлендерінің мазмұны мен мәні өзгеріп, жаңаша сипат иеленді. Мысалы: көне салттардағы жар-жарды қыздын аулында айтып, жігіттер жағы қызды жұбататын болса, әндігі жерде жар-жар қыз үйінде эмес, әкі жак бірігіп жасайтын тойда айтылатын дәстүрге айналді, Жене жиналған жұрт әкіге жарылмай бірігіп, жас жұбайларға ізгі тілек тілеп, пайдалы ақыл-кеңес ұсынады:

*Жаңа энәр босаған,
Мықты болсын, жар-жар.
Тандап тапқан қосағың
Құтты болсын, жар-жар.
Махаббаттың желегі,
Желбіресін, жар-жар.
Адалдық ақ гүлі,*

Мөлдіресін, жар-жар", – kabi ma'lumotlar ham yuqoridagi janrning ijro o'rniga qarab mazmun-mohiyatan o'zgarishi mumkinligiga ishoradir.

Folklorshunos olim J. Eshonqulov ta'kidlaganidek: "Xalq ertagimi, dostonimi yoki marosim qo'shig'imi ularni ibtidoda kim va qachon yaratgani aniq emas. Har bir asar avloddan-avlodga o'tar ekan, vaqt va zamon talablariga ko'ra ma'lum o'zgarishlarga uchrashi mumkin, lekin uning asosi, an'analari o'zgarishsiz kelaveradi. Vaqtlar o'tishi davomida xalq ijrochilari tomonidan yanada ishlov berilib, chinakam folklor san'ati namunasiga aylanadi" [Jo'rayev 2017, 14]. Yor-yorlarning davrlar o'tib marosim folklorida tutgan o'rni o'zgarmasa-da, ijro o'rni, ijro usuli, ijrochilari yoki mazmun-

mohiyatida o'zgarishlar bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Yor-yorlarning mantiqiy izchilligi to'y marosimidagi voqealarning zanjiri bilan bog'liq jarayondir. Bu holat o'zbek to'ylarida yagona "Yor-yor", "Kelin salom", "Xush keldingiz" qo'shiqlarida izchil shaklda aks etsa, qozoqlarda o'tkaziladigan nikoh to'y marosimlarida ijro etiladigan "Toybastar", "Sinsu", "Jar-jar", "Au-jar", "Jupatuv", "Betashar", "Ayt kelin" qo'shiqlarida to'y voqealari go'yo sahna ko'rinishi kabi ketma-ketlikda namoyon bo'ladi.

Z.Qosimova "Свадебные обычаи многих тюркоязычных народов носят универсальный характер. Они, по сути своей очень схожи, но при этом встречаются отличия, связанные с различной последовательностью некоторых обрядов"[Қосимов 2016, 141-148] – deya, turkiy tilli xalqlarning to'y marosimlaridagi umumiylik va o'ziga xoslik haqida fikr bildiradi. Haqiqatan ham, to'yning eng emotsional jarayonlarini aks ettiruvchi yor-yor/jar-jar qo'shiqlarining mantiqiy izchilligida o'xshashlik va o'ziga xosliklar mavjuddir.

Bo'lajak kelinning o'y-kechinmalari, orzu-umidlari, kelajak hayotidan xavotiri to'rtliklarda jonli ko'rinishda, hech qanday soxtalikka yo'l qo'yilmagan holda aks etadi. Misralardagi o'xshatishlar, o'ziga xos qochirimlar, badiiy so'z san'atining xalqona ifodasi buni asoslaydi.

*Men otomding uyida,
Meymon edim, yor-yor.
Oltin sandiq ustida,
O'ynor edim, yor-yor.*

Yoki:

*Uy oynolma mayizdi,
To'ktim oto, yor-yor.
Ko'p ko'rganing men bo'som,
Kettim oto, yor-yor.*

Qozoqlarda:

*Ақ куйзді жауамын түңлік қылып, жар-жар-ау,
Қызды құдай жаратқан мұңлық қылып, жар-жар-ау.
Қызы болмай әкемнің ұлы болсам, жар-жар-ау,
Өз әлімде жүрер әдім билік қылып, жар-жар-ау.*

Kelinning hasrati, iztirobi, albatta, birinchi navbatda ota uyidan ketish bilan bog'liq bo'lmoqda.

Qozoq jar-jarlarida bu holat o'zbek yor-yorlariga o'xshab alohida to'rtliklarni tashkil etmaydi. Kelinning iztiroblari asosan to'y o'lanlari sirasiga kiruvchi *sinsu* (сынсу) qo'shiqlarida o'ziga xos tizimda kuylanadi.

Iztiroblarning asosiy sabablaridan biri yot (sinalmagan) elga borganda kelinni kutayotgan yangi hayot yoki yangi xonadon egalariining munosabatlari tizimida ko'zga tashlanadi.

*Shildir-shildir qamishga,
Sirq'om tushdi, yor-yor.
Sinolmog'an jigitga,
Singlim tushdi, yor-yor.
Сылдыр-сылдыр қамысқа,
Сырғам түсті, жар-жар-ау,
Сынамаған жерлерге,
Сіңлім түсті, жар-жар-ау.*

Yuqoridagi "Shildir-shildir qamishga" misrasi bilan boshlanuvchi to'rtliklar o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz yor-yorlarida birday uchraydi. Bu ifodaning takrorlanishi, yor-yor qo'shig'ining etno-genetik kelib chiqish tarixi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qadimda ajdodlarimiz ko'chmanchi bo'lib, chorvadorlik bilan shug'ullanishgan. Ularning hayot tarzi asosan suv bo'ylarida o'tgan. Bu holat, ya'ni ularning maishiy-turmush tarzi va dunyoqarashlari bilan uzviy bog'liq marosimlari, urf-odatlarini qo'shiqlarida aks etmasligi mumkin emas. Misralardagi "qamish" so'zi ma'lum ma'noda, shunga urg'u bermoqda.

Yangi xonadon va uning egalari bilan bog'liq o'y-kechinma, xavotir, hadik:

*O'z atangni eshigi, ipak eshik, yor-yor,
Kirsang-chiqsang chochingni, silar eshik, yor-yor.
Qaynotangni eshigi, changal eshik, yor-yor,
Kirsang-chiqsang chochingni, yular eshik, yor-yor.*

Bunday solishtirishlar o'zbek yor-yorlarida o'zgacha, qozoq jar-jarlarida o'zgacha ifodalanadi. Jar-jarlarda asosan, o'z ota-onasi, jigarlari, qavm-qarindoshlarining o'rnini hech kim (kuyovning ota-onasi, qavm-qarindoshlari) bosa olmasligi tizimli ravishda gavdalanadi.

*Есік алды қара су, майдан болсын,
Жар-жар-ау,
Ақ жүзімді көргендей, айнам болсын,*

*Жар-жар-ау,
Қайын атасы бар дейді, осы қазақ,
Жар-жар-ау,
Айналайын әкемдей, қайдан болсын,
Жар-жар-ау.*

Yuqoridagi to'rtlik davomiy dialog shakliga ega bo'lib, qolgan davomiylikda ota, ona, aka, yanga, uka, singil – o'zga xonadonda topilmasligi kuylanadi. “Эсік алды қара су майдан болсын, жар-жар-ау, Ақ жүзіңді көрерлік айнам болсын, жар-жар-ау” misralari takrorlanib, keyingi misralarda oila a'zolarining o'rne almashib boradi. Dialogning davomi sifatida yigitlar yoki qarshi tomon:

*Бир толарсақ, бир тобық санда болар, жар-жар!
Қырық кісінің ақылы ханда болар, жар-жар!
Әкем-ей деп жылама, байғус қыздар, жар-жар!*

Экең үшін қайын атаң онда болар, жар-жар! – deb, kuylashadi. Qadimda jar-jarlarning ikki ko'rinishdagi ijrosi kuzatilgan [Baytursinov 2003, 133], ya'ni “Бир толарсақ, бир тобық санда болар, жар-жар! Қырқ кісінің ақылы ханда болар, жар-жар!” misralarining o'rniga “Алып келген базардан, қара насар, жар-жар! Қара құйрық сәукеле, шашың басар, жар-жар!”, – deb aytilgan.

Yoki “Есік алды құба тал, майда болсын, ақ бетімді көретін айнам болсын” (Qarang: M. G'abdullinda “Есік алды қара су майдан болсын, жар-жар-ау, Ақ жүзімді көргендей айнам болсын, жар-жар-ау” shaklda [G'abdullin 1990, 73]) misralari “Жазғы-тұры ақша қар жаумақ қайда, Құлын-тайдай айқасқан оң жақ қайда”, deb ham ijro etilgan.

“Бабалар сөзі” 100 tomlikning 90-jildiga kiritilgan jar-jarlarda:

*Сылдыр-сылдыр оймағым,
Қағылайын, жар-жар.
Айналайын ағамды,
Сағынайын, жар-жар!
Айналайын ағамды,
Сағынар ем, жар-жар.
Өзі апарып салады,
Неғылайын, жар-жар!*

Bugungi kunda ham ijro etiladigan yuqoridagi to'rtlikda davomiy qaytariqli kompozitsiya ko'zga tashlanadi.

Сылдыр-сылдыр оймағым,
Қағылайын, жар-жар.
Айналайын жеңгемді,
Сағынайын, жар-жар!
Айналайын жеңгемді,
Сағынар ем, жар-жар!
Кісі елінің адамы,
Неғылайын, жар-жар! [Бабалар сөзі 1990, 114].

Shunday obrazlar tizimi o'zgarib turadi, ammo kompozitsiyadagi takroriylik qo'shiqning mazmun-mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, kelinning ichki his-tuyg'ularini yanada yaqqol namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

A.Baytursinovning fikricha, jar-jarlardagi qaytarilib aytiladigan misralar avvaldan qoliplanib qolgan. Bunday holat og'zaki adabiyotning mavsum qo'shiqlari yoki epik janrlarida ham uchrasada, ammo jar-jarlarda yagona tizimda uzoq o'tmishlardan buyon saqlanib qolgan. Buni biz V.Radlov yozib olgan jar-jar namunalari bilan solishtirganimizda aynan yaqin o'tmishda yozib olingan jar-jar to'rtliklari bilan birday ekanligini kuzatdik.

S.Seyfullinning ta'kidlashicha, avvallari jar-jar aytishuvlarini qiz tomon va yigit tomondan vakillar kuylagan bo'lsa, keyinchalik qiz va yigitning o'zi ijro etgan. Bunda aytishuvning yuqoridagi o'xshash qaytarmali qoliplanishi buzilib, yangicha tarmoqlanishlar ham paydo bo'lgan.

Yigit:

*Жердің сәні болмайды ел кеткен соң, жар-жар-ау,
Жүк көтермес қара нар бел кеткен соң, жар-жар-ау.
Кетеріңде сіңіліңе тапсырып кет, жар-жар-ау,
Өгейсітіп жүрмесін ер жеткен соң, жар-жар-ау.*

Qiz:

*Бір қамшым бар қолымда жез бауырлақ, жар-жар-ау,
Лікпедім өсекке сөзді ауырлап, жар-жар-ау.
Ісің еске түскенде, беу замандас, жар-жар-ау,
Жатамын да жылаймын жер бауырлап, жар-жар-ау.*

O'zbek yor-yorlarida bunday qaytariqlarni, asosan, "hay-hay o'lan" bilan boshlanuvchi to'rtliklarda ko'ramiz. Masalan, "Hay-hay o'lan, jon o'lan, jonim qizim, yor-yor", "Hay-hay o'lan, jon o'lan, otasizim, yor-yor", "Hay-hay o'lan, jon o'lan, oy kabi to'l, yor-yor", "Hay-hay o'lan, jon o'lan, tuzliqda tuz, yor-yor", "Hay-hay o'lan, jon

o'lan, hay dalaga, yor-yor" kabi.

Yor-yorlarning mazmun-mohiyati insonlarning turmush tarzidagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda yangilanib boradi. Yoki B.Sarimsoqov ta'kidlaganidek, ba'zi to'rtliklar maishiy turmushdagi o'zgarishlar natijasida ijro jarayonidan chiqib ketadi [Саримсоқов 1978, 17– 20].

Osmondagi turg'ayni otgan otam, yor-yor,

O'z qizini tanimay sotgan otam, yor-yor.

Shu misralarning "oq miltiq, qora miltiq otgan otam", "osmondagi yulduzni otgan otam", "oq olma, qizil olma otgan otam" kabi variantlari ham mavjud. Bunday variantlilik qozoq jar-jarlarida ham uchrashini yuqorida tahlil qildik. Keltirilgan yor-yor to'y marosimi qo'shig'i bo'lishiga qaramay, mazmunan hazin va munglidir. Bu munglilik albatta, real voqelik bilan uzviy bog'langan: o'tmishda qizlarning turmushga chiqishi ixtiyoriy ravishda emas, otalarning tanlovi bilan amalga oshirilgan. Bugungi kunda oila qurish ikki yoshning tanlovi asosida amalga oshirilmoqda va yor-yor qo'shiqlarining yuqoridagi kabi to'rtliklari zamonaviy to'y marosimlariga mos kelmay qoldi.

O'zbeklarda "Ota bilan enamni, mehri qatti, yor-yor, O'z qizini tanimay, cholga sotti, yor-yor", qozoqlarda "Әке менен шешенің, мейірі қатты, жар-жар-ау, Өз баласын қызығып, малға сатты, жар-жар-ау" [Sadirboyev 1992, 57] kabi misralarda yuqoridagi tahlillarga o'xshab, uzatilayotgan qizning o'y-kechinmalari aks etgan bo'lsa-da, ammo ota-onaning tanlovidan norozilik mazmuni, bugungi to'y marosimlarining mohiyatiga to'g'ri kelmaydi. Shu sababdan, bu kabi o'zgarishlar natijasida ham o'zbek to'ylarida, ham qozoq to'ylarida zamonaviy adabiy yor-yorlarning ijrosi ommalashib bormoqda, nazarimizda. Lekin marosim qo'shiqlaridan aynan yor-yor qo'shiqlari to'y marosimi bilan genetik aloqadorligini ma'lum ma'noda saqlab qolgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yor-yor qo'shiqlari semantik jihatdan kategorial kompleksdan tashkil topgan. Bunday qo'shiqlar quyidagi ma'noviy uzvlardan iborat: i+s+o=h shaklida namoyon bo'ladi. O'zbek va qozoq xalqlari nikoh to'y marosimida bugungi kungacha (ma'lum o'zgarishlarga yuz tutgan bo'lsa-da) saqlangan yor-yorlarda bo'lajak kelinning iztirobi → sabab → oqibat = hadik kabi falsafiy kategoriyalar qo'shiq matnlaridagi mantiqiy izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Faqatgina ijro o'rni va ijro usuliga (ba'zida ijrochilarga)

ko'ra farqli xususiyatlari areallik jihatdan o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- Алавия, М. 1974. *Ўзбек маросим қўшиқлари*. Тошкент.
Бабалар сөзі. 1990. *Жўзтомдық*. Т. 90.
Байтұрсынов, А. 2003. *Әдебиет танытқыш*. Алматы: Атамұра.
Ғабдуллин, М. 1974. *Қазақ халқының ауыз әдебиеті*. Алматы: Атамұра.
Имомназарова, Ш. 2017. *Ўзбек фольклорида ўлан жанри (ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва бадиияти)*. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. Тошкент.
Исаев, К. 2022. “Ўзбек халқ маросим қўшиқларидан “ўлан”нинг этник ва ғоявий-бадий хусусиятлари”. *“Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal* 3(1): 509 – 513.
Касимова, З. 2016. “Свадебно-обрядовый фольклор тюркоязычных народов”. *Туркология* 3: 141 – 148.
Jo'rayev, M., Eshonqulov, J. 2017. *Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma*. Toshkent.
Курышжанов, А. 1970. *Исследование по лексике “Тюркско-арабского словаря”*. Алма-Ата.
Мүсірепов, Ғ. 1970. «Өнер туыстығы» мақаласы. Кітаб: Суреткер парызы. Алмата: Жазушы.
Очилов, К. 2008. “Келин салом қўшиқлари”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 67 – 69. Тошкент.
Otdyúew, G., Atdayewa N. 2010. *Türkmen halk döredijiligi. Aşgabat: Türkmen döwlet neşirýat gullugy*.
Пухов, И. В. 1962. *Якутский героический эпос Олонгхо*. Москва.
Әуезов, М. 1969. *Шығармалар*. Он бірінші том. Алматы.
Қосимов, Н. 1998. *Ўзбек халқ лапарлари (генезиси ва поэтик табиати)*. Фил. фан. ном. дисс... Тошкент.
Саримсоқов, Б. 1978. “Ўзбек тўй маросимиға оид бир жанр”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 2: Тошкент.
Саримсоқов, Б. 1988. *Тўй маросим фольклори*. Ўзбек фольклори очерклари. 3 том. 1-том. Тошкент.
Саримсоқов, Б. 1986. *Ўзбек маросим фольклори*. Тошкент: Фан.
Сафаров, О. 1989. “Келин ўтирсин” ва “Куёв ўтирсин” маросим қўшиқлари”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5. Тошкент.
Шомаматов, Н. 1988. *Ўлан жанри ҳақида баъзи мулоҳазалар*. Ўзбек фольклори очерклари. Тошкент.
Тўхлиев, Б., Шералиев Э., Алиқулова Х. 2009. *Ёр-ёрлар. Ўзбек халқ қўшиқлари*. Тошкент: Ўзбекистон миллий университети нашриёти.
Уахатов, Б. 1974. *Қазақтың тұрмыс-салт жырларының типологиясы*. Алматы: Ғылым.

The Relationship of Uzbek and Kazakh Yor-Yor Songs to Other Wedding Songs

Hulkar Alikulova¹

Abstract

Unique and similar aspects of the genre when analyzing the specific place of performance, method of performance, purpose of expression, poetic features, structure, rhyming of "Yor-yor" songs related to wedding ceremonies of Turkish peoples is noticeable. The folk form of artistic expressions in wedding songs performed with the refrain "yor-yor" in Uzbeks, "jar-jar" in Kazakhs, the role of speech in the process of the wedding ceremony, performance skills of performers, character, characteristics of images, magic The existence of -inonch-beliefs requires a comparative typological analysis.

In particular, expressing the role, position, and outlook of the father-in-law, mother-in-law, and sister in the family life is considered an important factor in ensuring the compositional integrity of the work. The article examines the coherence of Uzbek and Kazakh yor-yor songs with other wedding ceremony songs. In particular, the meeting of small ceremonies in the Kazakh wedding ceremony and the essence of the songs performed in them or the place of performance are analyzed in a comparative typological way with the similar Uzbek wedding ceremony songs.

Key words: *Turkish folklore, genre, comparative analysis, olan, yor-yor, ritual, intangible heritage, rhyme, tradition, song, Kazakh folk ritual.*

References

- Alaviya, M. 1974. *O'zbek marosim qo'shiqlari*. Toshkent.
Babalar sözi. 1990. *Jyztomdiq*. T. 90.
Baytұrsұmov, A. 2003. *Әdebiet tanıtqısh*. Almatı: Atamұra.
G'abdullin, M. 1974. *Qazaq xalqınıń auız әdebieti*. Almatı: Atamұra.
Imomnazarova, Sh. 2017. *O'zbek folklorida o'lan janri (o'ziga xos xususiyatlari, genezisi va badiiyati)*. Filol. fan. bo'yicha falsafa

¹ *Hulkar K. Alikulova* – doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, senior teacher, Tashkent state Uzbek language and literature named after Alisher Navoi university.

E-pochta: hulkaraliqulova79@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8863-3624

For citation: Alikulova, H. K. 2024. "The Relationship of Uzbek and Kazakh Yor-Yor Songs to Other Wedding Songs". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 36 – 54.

dokt. (PhD) ... diss. avtoref. Toshkent.

- Isaev, K. 2022. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlaridan "o'lan"ning etnik va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari". *"Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal* 3(1): 509 – 513.
- Kasimova, Z. 2016. "Svadebno-obryadovyy folklor tyurkoyazichnix narodov". *Turkologiya* 3: 141 – 148.
- Jo'rayev, M., Eshonqulov, J. 2017. *Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma*. Toshkent.
- Куръишжанов, А. 1970. *Issledovanie po leksike "Tyurksko-arabskogo slovarya"*. Alma-Ata.
- Мўсирепов, Г'. 1970. «*Өнер туыстыгы*» мақаласы. Kitab: Suretker paғызы. Almata: Jazushy.
- Ochilov, K. 2008. "Kelin salom qo'shiqlari". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 67 – 69. Toshkent.
- Otdyúew G., Atdayewa N. 2010. *Türkmen halk döredijiligi. Aşgabat: Türkmen döwlet neşirýat gullugy.*
- Puxov, I.V. 1962. *Yakutskiy geroicheskiy epos Olongxo*. Moskva.
- Әезов, М. 1969. *Shig'armalar*. On birinshi tom. Almaty.
- Qosimov, N. 1998. *O'zbek xalq laparlari (genezisi va poetik tabiati)*. Fil. fan. nom. diss... Toshkent.
- Sarimsoqov, B. 1978. "O'zbek to'y marosimiga oid bir janr". *O'zbek tili va adabiyoti* 2: Toshkent.
- Sarimsoqov, B. 1988. *To'y marosim folklori. O'zbek folklori ocherklari*. 3 tom. 1-tom. Toshkent.
- Sarimsoqov, B. 1986. *O'zbek marosim folklori*. Toshkent: Fan.
- Safarov, O. 1989. "Kelin o'tirsin" va "Kuyov o'tirsin" marosim qo'shiqlari". *O'zbek tili va adabiyoti* 5. Toshkent.
- Shomamatov, N. 1988. *O'lan janri haqida ba'zi mulohazalar*. O'zbek folklori ocherklari. Toshkent.
- To'xliev, B., Sheraliev E., Aliqulova H. 2009. *Yor-yorlar. O'zbek xalq qo'shiqlari*. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
- Уахатов, В. 1974. *Qazaqtың тырмыс-salt жырларының типологиясы*. Almaty: G'ылым.